

**ДИДАКТИК ЎЙИНЛАР ВОСИТАСИДА ЎҚУВЧИЛАРГА
ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ БИЛИМЛАРНИ ТАҚДИМ ЭТИШНИНГ
ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ**

*Jumayeva Feruza Sayidovna
Buxoro davlat Pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada ижтимоий-иқтисодий билимларни тақдим этишда дидактик ўйинларни педагогик асослари о`qituvchi va o`quvchilarning imkoniyatlarini kengaytiruvchi funksiyalarni ochib berilgan. Shuningdek, iqtisodiy bilimdonlikni rivojlantirishda didaktik o`yinlarning tutgan o`rni tavsiflangan, o`yin turlari ko`rsatilib, ularning mazmun mohiyati ochib berilgan.

Kalit so`zlar. Didaktik o`yinlar, дидактик восита, иқтисодий таълим, ishchan o`yinlar, rivojlantiruvchi o`yinlar, антиципация, рекапитуляция, гендер, мантиқий тафаккур, интеллектуал, тараққиёт.

Аннотация

В данной статье раскрываются педагогические основы дидактических игр при изложении социально-экономических знаний, функции, расширяющие возможности учителя и учащихся. Также описана роль дидактических игр в развитии экономических знаний, показаны виды игр и раскрыто их содержание.

Ключевые слова: Дидактические игры, дидактический инструмент, экономическое образование, рабочие игры, развивающие игры, антиципация, перепросмотр, пол, логическое мышление, интеллектуальный, развитие.

Annotation

This article reveals the pedagogical foundations of didactic games in presenting socio-economic knowledge, functions that expand the capabilities of teachers and students. The role of didactic games in the development of economic knowledge is also described, the types of games are shown and their content is revealed.

Key words. Didactic games, didactic tool, economic education, work games, educational games, anticipation, recapitulation, gender, logical thinking, intellectual, development.

Bugungi kunda o`quvchilarda iqtisodiy bilim, ko`nikma va malakalarni hosil qilish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bu sohada mustaqillik dastlabki yillaridan boshlab alohida e'tibor qaratildi. Natijada maktab ta'limg tizimiga iqtisod alifbosi, iqtisodiy bilim asoslari kabi o'quv kurslari bilan bir qatorda, barcha o'quv fanlari mazmuniga mamlakat iqtisodiga oid asosiy tushunchalar va bilimlar singdirildi.

Chunki mustaqil O'zbekistondagi rivojlanish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiy ta'lif jadal tarzda amalga oshirilishi kerak.

Umumiy o'rta ta'lif tizimi jamiyat a'zolariga mamlakat iqtisodiy salohiyati va iqtisod nazariyasiga oid dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish ehtiyojini qondirishi lozim. Shundan kelib chiqqan holda so'nggi yillarda pedagogika fanida ham o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni taqdim etish nazariyasi va amaliyotini yangilash va boyitish ehtiyoji vujudga keldi. O'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni taqdim etishda turli usullar va metodlar bilan bir qatorda, o'yinlardan foydalanish samaraliroq ekanligini kuzatishlarimiz va amaliy ish tajribamiz yaqqol ko'rsatmoqda. Chunki o'yinlar yordamida ijtimoiy voqelikni o'quvchilar ko'z o'ngida yanada yorqinroq va aniqroq aks ettirish imkoniyati mayjud.

Iqtisodiy ta'lif amaliyotida o'yinlardan foydalanish zaruriyati bir qator ijtimoiy madaniy holatlar bilan ham izoxlanadi. Bu zaruriyat ijtimoiy uyushganlikning yangi shakllarini izlash va qo'llash bilan bevosita bog'liqdir. Bunda o'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi o'zaro munosabat madaniyati ham muhim o'rinni egallaydi. O'quvchilarning muloqot madaniyati darajasini rivojlantirish ehtiyoji didaktik jarayonlarda o'quvchilarning bilish faolligini rivojlantirishni taqozo etadi. Shu asosda ularning qiziqishlarini iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirish mumkin. Chunki o'yinlar jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni bilish imkonini beradigan o'quvchilar hayotiga yaqin bo'lgan jarayondir. Shuning uchun ham, o'yinlar yordamida o'quvchilarga iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarni taqdim etish eng qulay pedagogik vositalardar biridir.

O'yinlarning inson intellektual taraqqiyotiga ko'rsatadigan ta'siri barcha davrlarda mutaxassislarning e'tiborini o'ziga jalgan qilib kelgan. Dastlab o'yinlardan foydalanish masalasiga o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish imkoniyati sifatida qaralgan. Ajdodlarimiz o'yinlarni yoshlarni aqliy va jismoniy rivojlantirish vositasi sifatida baholaganlar. Shuning uchun ham, o'tmishda enagalar, tarbiyachilar va ota-onalar farzandlarining asosiy vaqtlarini ularni aqliy rivojlantirishga xizmat qiladigan o'yinlar bilan o'tkazishga e'tibor qaratganlar.

Muayyan faoliyatni bajarish jarayonida o'quvchilar jadal rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunda ular foydalanadigan turli buyumlar, amalga oshiradigan munosabatlarni bilish ehtiyoji vujudga keladi. Shu asnoda o'quvchilar turli operatsiyalarni bajarishga muvaffaq bo'ladilar. Ayniqsa, o'smir yoshdagagi o'quvchilar o'z muammolarini mustaqil hal etishga harakat qiladilar. Chunki ular atrofdagilar nazdida o'zlarining ulg'ayganliklarini namoyon qilishni istaydilar. Masalan, ko'pgina o'smir yoshdagagi o'quvchilar mashinani mustaqil boshqarishni xohlaydilar. Biroq, mazkur harakatning iqtisodiy asoslari va oqibatlari haqida hech qachon o'ylab ko'rmaydilar. Chunki ular barcha operatsiyalarni o'zlashtirmaganliklari tufayli xatolarga yo'l qo'yishlari mumkinligini tasavvur qilolmaydilar. O'z xatti-

harakatlarining mohiyatini tushunishlari uchun ularni ko'proq iqtisodiy xarakterga ega bo'lган о'йн faoliyatiga jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

O'йн harakatlari orqali o'quvchilar o'zaro aloqador bo'lган turli operatsiyalarni bajarish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini to'g'ri anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Chunki mazkur o'yinlarda ular bajaradigan harakatlarning mohiyati namoyon bo'ladi.

O'yinlarni vujudga kelishi haqida ham bir qator yondashuvlar mavjud. Asab quvvatlarini qo'zg'atish nazariyasi bundan ikki asr (XIX asarda) avval vujudga kelgan edi. O'йн ijtimoiy pedagogik hodisa sifatida bir qator nuqtai nazarlarning vujudga kelishiga asos bo'lган. O'yinlar faollikka undovchi, ijtimoiy voqelikni kompensatsiya qiluvchi pedagogik-psixologik hodisa hisoblanadi.

O'yinlar yuqori darajadagi faollik mahsulidir. Bunday imkoniyat odatiy xatti-harakatlarda mavjud bo'lmaydi. SHuning uchun ham, tezkor zamonda vujudga kelayotgan iqtisodiy bilimlarni o'yinlar vositasida o'quvchilarga taqdim etish pedagogik mahsuldarlikka erishish imkoniyatini kengaytiradi. O'йн jarayoni shuning uchun ham ahamiyatlici, u o'quvchilarning quvvatlarini erkin namoyon qilishlari uchun imkoniyat yaratadi. O'quvchilar tomonidan amalga oshiriladigan o'yinlar yordamida ularni muvaffaqiyatga undash imkoniyatlari kengayadi. Buning natijasida o'quvchilarda qoniqish hosil bo'lib iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirishga bo'lган qiziqishlari kengayadi. Natijada o'quvchilar iqtisodiy topshiriqlarni bajarishda faollik ko'rsata boshlaydilar.

Ichki va tashqi pedagogik omillar bilan bogliq holda amalga oshiriladigan o'йн jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirishda birinchi darajali ahamiyat kasb etib ulkan pedagogik imkoniyatlarga ega. Chunki o'yinlar yordamida o'quvchilarda quvvatlarni ro'yobga chiqarish, charchoqlarni bartaraf etish, raqobatbardoshlikka intilish kabilar tarkib topadi. Shuning uchun ham o'yinlar o'quvchilarning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi o'ziga xos didaktik vositadir.

O'yinlar jarayonida o'quvchilarning iqtisodga oid bilim, ko'nikma va malakalari tadrijiy tarzda rivojlanadi. O'yinlar yordamida ular muntazam o'zgaruvchi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarga moslashish tajribasini o'zlashtiradilar. O'yinlar vositasida o'quvchilarning ichki quvvatlari qo'zgaladi va ro'yobga chiqadi. Chunki o'yinlar jarayonida o'quvchilar turli didaktik mashqlarni bajaradilar.

O'quvchilar bilan amalga oshiriladigan o'йinlar rekapitulyatsiya va antitsipatsiya imkoniyatiga ega. O'йin vositasida o'quvchilar o'zlarida mavjud bo'lган salbiy jihatlardan voz kechib tadrijiy tarzda rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Mutaxassislarning fikricha, o'yinlar va o'йin jarayonida amalga oshirilayotgan faoliyat redutsirovanni faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Bu ijtimoiy hayotning mavjud manzarasi, madaniy taraqqiyot ko'rinishlarini ifodalovchi faoliyat jarayonidir.

Shu bilan bir qatorda, o'yin jarayonida o'quvchilarda antitsipatsiya tarkib topadi. Mazkur nazariya tarafdarlarining fikricha, o'yin jarayonlarini tashkil etishda o'g'il bolalar va qiz bolalar uchun alohida-alohida yondashuvlarga tayanish lozim. Chunki o'yinlar jarayonida o'quvchilardagi gender xususiyatlar yaqqol namoyon bo'ladi. Gender xususiyatlarning namoyon bo'lishi ayniqsa iqtisodiy munosabatlarda muhim ahamiyatga ega. Shu asosda o'quvchilar o'zlarining jamiyatda bajaradigan hayotiy rollarini asta-sekin asoslab boradilar. O.S.Gazman o'z tadqiqotlarida o'yinlarning zamon va makon bilan bog'liq yo'nalishlarini tadqiq qilgan edi. Uning fikricha, o'yinlar ikki xil zamonni ifodalashi bilan xarakterlidir. Har qanday o'yin hozirgi va kelasi zamon ifodasi bo'la oladi.

Darhaqiqat o'yinlarda hozirgi zamondagi voqelik aks etsada, ular o'quvchilarning kelajakdagagi hayot tarzini ifodalab unga moslashishlari, ya'ni ijtimoiylashishlariga ko'maklashadi.

O'zining bajaradigan vazifalaridan qoniqish hissi o'quvchilarning jadal ijtimoiylashishlarini ta'minlaydi. O'yinlar jarayonida o'quvchilarning anglamagan holda harakat qilishlari, ularning yashirin istaklari erotik xarakterga ega. Bu ayniqsa rolli o'yinlar jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi.

Shaxs individual psixologiyasining namoyondalari (3.Freyd) va (A.Adler (1870-1937)ning ta'kidlashlaricha, o'quvchi intilishlarining asosiy yo'naltiruvchi manbai ularning o'z mavjudliklarini tasdiqlashlari, vujudga kelgan to'laqonli bo'lмагan hissiyotlar bilan bog'liqdir. O'yinlarning hosil bo'lishi va ularning o'ziga xos jihatlari o'quvchi istaklarining amalga oshish shakli sifatida namoyon bo'lib, unda bajaradigan xatti-harakatlarni o'quvchilar odatiy vaziyatlarda amalga oshara olmaydilar.

Psixoanalizning asoschisi bo'lgan 3.Freyd o'yinlarning qoplovchilik imkoniyatiga egaligini nazariy jihatdan asoslashga harakat qilgan edi. U inson ruhiyatining anglanmagan mexanizmlari bilan bog'liq bo'ladi. Bolalar tomonidan o'ynaladigan o'yinlarda anglanmagan qiziqishlar ramziy tarzda amalga oshiriladi. Shuning uchun ham o'yinlar o'quvchilar ruhiyatini tozalaydi va sog'lomlashtiradi, murakkab holatlarni bartaraf etadi.

O'yinlarning o'quvchilarni ijtimoiylashishlari uchun foydalilik darajasi ularning muayyan bilimlar va tajribalarni o'zlashtirishdan qoniqish hosil qilishlarida namoyon bo'ladi. O'yinlar o'quvchilarning o'zlarini namoyon qilish, o'zlashtirgan iqtisodiy bilimlarini tizimlashtirish, turli kechinmalardan ozod bo'lish, o'z bilimlarini sinovdan o'tkazish va imkoniyatlarini anglashlariga ko'maklashadi.

O'yinlar murakkab iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning dam olishlariga ham imkoniyat beradi. Chunki ular bardamlik va quvvatlarni tiklash imkoniyatiga ega. Shu narsa ayonki, ta'lim jarayonida tashkil etiladigan o'yinlar jarayonida o'quvchilar nafaqat o'z quvvatlarini sarflaydilar, balki ularni tiklash imkoniyatiga ham egadirlar. Shuning uchun ham ular quvvatlarning o'rnnini qoplash va

muvofiglashtirish uchun ham qulaydir. O'yinlar o'quvchilarning oldin ishga solimmagan jismlarini ham harakatlanishga jalb etadi. Shu orqali inson jismi va aqlining muvofigligini ta'minlaydi.

Iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida tashkil etiladigan o'yinlar orqali o'quvchilarni ijtimoiy ma'naviy rivojlantirish imkoniyati vujudga keladi. Chunki ular iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda, muayyan jamiyatda amalga oshiriladigan shaxslararo iqtisodiy munosabatlarni ham o'zlashtiradilar. Chunki o'yinlar orqali o'quvchilar bilirnchi navbatda mehnat faoliyatiga tayyorlanadilar. Mehnat orqali esa ularning iqtisodiy manfaatdorliklari ta'minlanadi. Shu ma'noda o'yinlarda shaxsning muayyan jamiyatda o'z mavjudligini anglash va tasavvur qilish ko'nikmalari muvofiglashadi. Shuning uchun ham, o'yinlar o'quvchilarni ijtimoiy ma'naviy shakllantirish vositasi bo'la oladi.

Iqtisodiy ta'lim jarayonida foydalilaniladigan didaktik o'yinlar shaxsning muayyan jamiyatda samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan ko'plab pedagogik imkoniyatlarga ega. Aynan bir turdag'i izlanishlar o'yinlarning shaklanishi haqida turlicha manbalar va qonuniyatlarni ilgari suradi.

Didaktik o'yinlar pedagogik-psixologik hodisa sifatida unda ishtirok etish jarayonida o'quvchilar aqliy topshiriqlarni yechish, ularning yechimlarini mustaqil izlab topish, bu jarayonda muayyan qiyinchiliklarni bartaraf etish ko'inkmalarini o'zlashtiradilar. O'quvchilar aqliy topshiriqlarni idrok etib amaliy, o'yinga asoslangan faoliyatga kirishadilar. Bu esa o'z navbatida ularning aqliy faolliklarini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda o'yinlar jarayonida o'quvchilarda sezgirlikning rivojlanishi ularning mantiqiy tafakkurlari va ko'nikmalarining shakllanishi bilan uyg'un tarzda amalga oshadi. O'yinga asoslangan topshiriqlarni yechish jarayonida narsa va buyumlarning belgilarini qiyoslash, ularning kelib chiqishidagi farqlarni aniqlash, umumglashtirish, xulosalar chiqarish talab etiladi. Shu tariqa o'quvchilarda hukmlar chiqarish layoqati rivojlanib o'z bilimlarini turli vaziyatlarda qo'llash ko'nikmasi tarkib topadi. Buning uchun o'quvchilarda mazkur hodisalar, narsa va buyumlar haqida aniq tasavvur shakllangan bo'lishi lozim. masalan, bozor, undagi munosabatlar, narsalar, buyumlar, ularning narx-navolari, turli savdo shaxobchalari haqidagi iqtisodiy bilimlar va tasavvurlar shular jumlasidandir.

Pedagoglar va psixologlar shuni yaxshi bilishlari lozimki, o'yinlar jarayonida birinchi navbatda o'quvchilarda iqtisodiy voqelikni idrok etish hamda obrazli tafakkur rivojlanadi. Chunki o'yin jarayonida o'quvchilar ob'ektiv borliqni keng ko'lama idrok qilishga muvaffaq bo'ladilar. Bu jarayon esa ularga o'zlarining shaxsiy amaliy faoliyatlaridan tashqariga chiqish imkoniyatini beradi. Bu esa faqatgina shartli harakatlar yordamida amalga oshadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva. Pedagogika nazariyasি Toshkent-2008,-B. 198

2. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma T.G‘afforova.- T.: Tafakkur, 2011.-160 b.
3. M. Inoyatova, A.Nosirov, M.Divanova, G.Boymurodova, A.Baxromov, M.Rasulova F.Abduqudusova. Boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni qo‘llash.Toshkent- 2014
4. Rustamovich, Q. J. (2023). MUAMMOLI TA’LIMNI TASHKIL ETISH VA UNI RIVOJLANTIRISH YO’LLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 22(4), 115-117.
5. Rustamovich, Q. J. (2024). O’QUVCHILAR TEMPERAMENTINING O’ZLASHTIRISH KO’RSATKICHLARIGA TA’SIRI. *WORLD OF SCIENCE*, 7(1), 23-25.